

KICHIK BIZNES SUB'YEKTLARI XO'JALIK FAOLIYATI JARAYONIDAGI XARAJATLARNING MOLIYAVIY TALQINI

A.Isomuxamedov

Namangan muhandislik-qurilish instituti o'qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi

akbarjon@gmail.com ORCID: 0009-0004-2630-3840

Anotatsiya: Ushbu maqolada kichik biznes subyektlarining faoliyatini tashkil etishda xarajatlarning moliyaviy talqinini ayrim masalalari ko'rib chiqilgan va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Moliyaviy hisob, ishlab chiqarish jarayoni, xarajatlar turkumlanishi, hisob siyosati, tannarx.

Ma'lumki, iqtisodiyotning erkinlashuvi sharoitlarida xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning moliyaviy sog'lom faoliyat olib borishlari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa buxgalteriya hisobiga va uning ma'lumotlari asosida moliyaviy boshqarish oqilona olib borilishiga tayanadi. Shuningdek, zamonaviy buxgalteriya hisobida xarajatlar hisobini yuritish markaziy o'rin egallamoqda. Hozirgi zamon buxgalteriya hisobi fanidagi Ch. T. Xorngren va J. Fosterning klassik asari "Cost accounting: A Managerial Emphasis"[1] deb nomlanishi ham ramziy ma'noga ega. O'zbek tilidagi so'zma-so'z tarjimada bu "Xarajatlar hisobini yuritishning boshqaruv olib borilishi bo'yicha jihatlari"ni anglatadi. Ma'lumki, ishlab chiqarish xarajatlari mahsulot ishlab chiqarishni tayyorlashdan boshlab uni tayyor mahsulot ko'rinishida omborga qabul qilingungacha bo'lgan xarajatlar yig'indisidan iborat bo'ladi. Xarajatlar yo'nalishlari va tarkibi mahsulot ishlab chiqarish texnologiyasi va ishlab chiqarishning xususiyatlariga qarab har xil bo'ladi. Hozirgi paytda mamlakatimizda barcha korxonalarda, shu jumladan, kichik biznes korxonalarida ularning xarajatlar borasidagi faoliyatini hisobga oluvchi asosiy hujjat - "Mahsulot (ish, xizmat) tannarxiga qo'shiladigan, uni ishlab

chiqarish va sotish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarning tarkibi va moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi haqidagi" Nizom hisoblanadi[2]. Mazkur Nizomga asosan tannarxni shakllantirishda hisobga olinadigan xarajatlar tarkibi aniqlashtirib berilgan. Moliyaviy maqsadlar uchun xarajatlarni aniqlash quyidagilarga imkon beradi:

- buxgalteriya hisobi schyotlarida bevosita mahsulot ishlab chiqarish va sotish jarayonida yuzaga keladigan xarajatlar haqida to'liq va aniq ma'lumotlarni aks ettirish;
- moliyaviy natijalarni va korxonalar faoliyati rentabelligini hisoblash;
- moliyaviy qarorlar qabul qilish;
- soliqqa tortish masalalarini to'g'ri aniqlash.

Ushbu vazifalarni bajarish uchun moliyaviy jihatdan xarajatlar quyidagi guruhlariga bo'linadi:

- mahsulotni ishlab chiqarish tannarxiga qo'shiladigan xarajatlar;
- davr xarajatlari tarkibida hisobga olinadigan va asosiy faoliyat foydasini aniklashda e'tiborga olinadigan xarajatlar;
- korxonaning umumiy faoliyatidan keladigan foyda yoki zararni aniklashda hisobga olinadigan moliyaviy faoliyat xarajatlari;
- soliqqa tortishdan oldingi foyda yoki zararni aniklashda hisobga olinadigan foyda;
- favqulodda zararlar.

Korxonalarda mahsulot ishlab chiqarishda qilinadigan xarajatlarning guruhlariga to'g'ri va anik tasniflanishi buxgalteriya hisobi ma'lumotlarining sifatini oshiradi. Mahsulot ishlab chiqarishdagi xarajatlar o'z navbatida bir necha belgilari bo'yicha guruhlariga ajratiladi.

Moliyaviy nuqtai nazardan korxonalarda xarajatlar - ishlab chiqarish xarajatlari, davr xarajatlari, moliyaviy faoliyat xarajatlari va favqulodda zararlariga bo'linadi. Ishlab chiqarish xarajatlari iqtisodiy mazmuniga qarab, iqtisodiy elementlar va kalkulyasiya moddalariga bo'linadi. Elementlari bo'yicha guruhlash ishlab chiqarish xarajatlarini ularning iqtisodiy ma'zmuniga ko'ra aniqlash va tegishli byudjetlar tuzish uchun xizmat

kiladi. Kalkulyasiya moddalari bo'yicha guruhlash esa mahsulot tannarxini hisoblashga xizmat qiladi. Mamlakatimizda kichik biznesda buxgalteriya hisobi yuritilishi huquqiy asoslari ishlab chiqilgan va amaliyotda qo'llanilmoqda. Ushbu qonun hujjatlariga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Fuqarolik kodeksi, Mehnat kodeksi, "Xususiy korxonalar to'g'risida"gi, "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi, "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi, "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi va boshqa qonunlar kiradi. Qonun hujjatlariga muvofiq korxonalarda buxgalteriya hisobini tashkil etish xo'jalik rahbari zimmasiga yuklatilgan. BHMSga binoan yuridik shaxslarda hisob yuritilishi 21-sonli "Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar moliya-xo'jalik faoliyati buxgalteriya hisobining schyotlarning rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma" belgilangan yagona uslubiy asoslari hamda tadbirlarga muvofiq tashkil etiladi. Barcha yuridik shaxslardagi kabi kichik biznesda ham buxgalteriya hisobining ikki jihati mavjud: moliyaviy va boshqaruv hisobi. Moliyaviy hisobning tartib-qoidalari davlat tomonidan rasmiy ravishda belgilab qo'yilgan bo'lib, ular birinchi navbatda «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonunda va buxgalteriya hisobi milliy standartlarida ifodalangan[2]. Moliyaviy hisobning natijalari moliyaviy hisobotlarda jamlanadi. Bu hisobotlar davlat manfaatlari ifodachisi bo'lgan soliq organlariga taqdim etiladi va oshkora moliyaviy axborot hisoblanadi. Moliyaviy hisob ma'lumotlari korxonani boshqarish uchun juda muhim ahamiyatga ega, lekin yetarli emas. Shuning uchun ham korxonada buxgalteriya hisobining moliyaviy hisob talablariga nisbatan kengroq va chuqurroq olib borilishi zaruriyati tug'iladi. Korxonani boshqarish uchun zarur axborot bazasini ta'minlovchi buxgalteriya hisobi boshqaruv hisobi deb ataladi. Hisob yuritishning bu jihatini korxonaning o'zi mustaqil ravishda belgilaydi. Korxonaning rasmiy moliyaviy hisobotlarni ishlab chiqish va korxonani boshqarish uchun zarur ichki iqtisodiy axborotga ehtiyojidan kelib chiqqan holda hisob siyosati ishlab chiqilishi lozim. Hisob siyosatiga nisbatan qonunchilikning talablari 1-sonli BHMSda qayd etilgan va bu kichik biznes sub'yektlariga ham taalluqlidir. Kichik biznes sub'yektlarining hisob siyosatida buxgalteriya hisobining moliyaviy va boshqaruv jihatlari o'zaro uyg'unlashtirilishi lozim.

Bu jihatlarni zamonaviy buxgalteriya hisobida quyidagicha talqin etadilar. Buxgalteriya hisobi tizimi - bu korxonaning asosiy axborot tizimi. Unda korxonaning ichki hisobotlari shakllantiriladi. Bu hisobotlar quyidagi maqsadlarga xizmat qiladi: 1) korxonada faoliyatini rejalashtirish, nazorat va baholab borish; 2) korxonada faoliyati jarayonida, ayniqsa nostandart vaziyatlarda oqilona qarorlar qabul qilish va korxonada siyosatini tanlash; 3) investision qarorlar qabul qilinishi, soliqlar to'g'ri to'lanishi va boshqa maqsadlarda tashqi foydalanuvchilar uchun hisobotlar tayyorlash. Tashqi hisobotlar davlat tomonidan qat'iy belgilangan tartib-qoidalar asosida (BHMS) yoki xalqaro tan olingan qoidalar asosida (MHXS) amalga oshiriladi. Bu qoidalarga asoslangan buxgalteriya hisobi moliyaviy hisob (financial accounting) deb ataladi[4]. Kichik biznes subyektlarining xarajatlar bo'yicha ajratilgan hisobotlardagi ma'lumotlar boshqaruv hisobini yuritish va boshqaruv hisobi uchun kerakli axborotlarni tizimli ravishda joylashtirishga qaratilishi lozim. Albatta, boshqaruv qarorlari ishlab chiqish uchun zarur ma'lumotlar statistik va soliq hisobotlaridan ham olinadi. Lekin mazkur hisobotlarning ma'lumotlari manbai bo'lib buxgalteriya hisobi xizmat qiladi. Shuning mazkur hisobotlar uchun zarur ma'lumotlar shakllanishi hisob siyosatida belgilab olinishi ularning ishonchli bo'lishini ta'minlaydi. Moliyaviy hisobotlar orqali olinadigan sifatli va ishonchlik ma'lumotlar orqali doimo aniq ko'rsatkichlarga ega bo'linadi. Moliyaviy rejalar o'z natijasiga erishadi va ijobiy biznes muhiti yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Хорнгрен Ч. Т., Фостер Дж. Бухгалтерский учет: управленческий аспект. – Москва, Финансы и статистика, 2000.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yildagi 54-sonli Qarori
3. Buxgalteriya hisobi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Qonuni. -www.lex.uz
4. Хорнгрен Ч. Т., Фостер Дж. Бухгалтерский учет: управленческий аспект. – Москва, Финансы и статистика, 2000, стр. 7.
5. Akbarjon, I. (2024). XARAJATLARNI BUDJETLASHTIRISH BIZNES REJANING MUHIM ASOSI SIFATIDA. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 41(5), 22-28.
6. Voxodir o'g'li, I. A. (2023). ACCOUNTING AND ANALYSIS OF COSTS AS A BASIS OF BUDGETING. *ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW* ISSN: 2319-2836 *Impact Factor: 8.071*, 12(04), 9-12.
7. Ўғли Исомухамедов, А. Б., & Икромиддин Кутбиддинович, С. (2023). БЮДЖЕТЛАШТИРИШДА ЗАМОНАВИЙ ЁНДАШУВЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ. *GOLDEN BRAIN*, 1(11), 406-412.

8. Boxodir o'g'li, I. A. (2022). FEATURES OF ACCOUNTING IN SMALL BUSINESS. *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 5, 64-70.
9. Kadirov, S., Isomukhamedov, A., Ergashev, O., & Bakhriev, A. (2021). *The Method of Increasing the Power Indicators of Engines of Gas-Cylinder Vehicles in Mountainous and Foothill Conditions* (No. 5398). EasyChair.
10. Сирожиддинов, И. К., & Исомухамедов, А. Б. (2022). Развитие экспортной направленности сельскохозяйственного производства.
11. Isomuhamedov, A. (2023). ORGANIZATION OF ACCOUNTING IN STRUCTURES OF A SMALL BUSINESS IN THE CONSTRUCTION FIELD. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876*, 17(12), 27-32.
12. Isomukhamedov, A., & Sirojiddinov, I. (2022, January). DETERMINING AND ACCOUNTING FOR THE COST OF PRODUCTION IN SMALL BUSINESSES IN THE MANUFACTURING SECTOR. In *Conference Zone* (pp. 241-243).
13. Lubis, S. N., Menglikulov, B., Shichiyakh, R., Farrux, Q., Ugli, B. O., Karimbaevna, T. M., ... & Jasur, S. (2024). Temporal and spatial dynamics of bovine spongiform encephalopathy prevalence in Akmola Province, Kazakhstan: Implications for disease management and control. *Caspian Journal of Environmental Sciences*, 22(2), 431-442.
14. Abdulazizovich, X. U. B. (2024). MOLIVAVIY AKTIVLAR TASNIFINI TAKOMILLASHTIRISH. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 41(2), 82-86.
15. Abdulazizovich, K. U. (2022). Improving Methodological Approaches to Financial Asset Accounting. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876*, 16(4), 56-62.
16. Abdulazizovich, X. U. B. (2023). XALQARO QOIDALAR ASOSIDA QIMMATLI QOG'OZLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH.
17. Abdulazizovich, K. U. IMPROVING THE REFLECTION OF MONEY AND CASH EQUIVALENT IN THE ACCOUNTING BALANCE. *Dear Academicians & Research Scholars*, 55.
18. Abdulazizovich, K. U. B. (2023). Improvement Of Information About Accounts Receivable In Current Assets In The Balance Sheet Based On International Standards. *Journal of Survey in Fisheries Sciences*, 10(2S), 2849-2859.
19. Khakimov, B. J., Alimov, B. B., Kholmirezayev, U. A., & Polechov, A. X. (2013). theory of Economic Analysis. *Tashkent" economics-finance"—2013*.
20. Abdulazizovich, K. U. (2023). POSITIVE ASPECTS OF THE CASH METHOD IN SMALL ENTERPRISES UNDER UNUSUAL CIRCUMSTANCES. *ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 8.071*, 12(11), 38-47.
21. Холмирзаев, У. А. (2023). ДЕБИТОР ҚАРЗЛАРИНИ АЙЛАНИШИ ТАҲЛИЛИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ: ДЕБИТОР ҚАРЗЛАРИНИ АЙЛАНИШИ ТАҲЛИЛИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ.
22. Holmirzaev, U. A. (2020). Financial assets and improvements of their analysis. *Экономика и социум*, (1 (68)), 102-105.
23. Abdulazizovich, X. U. B. Moliyaviy aktivlar hisobini yuritishda xalqaro standartlar qoidalarini qo'llash masalalari. *Ilmiy monografiya. Toshkent—2023*.
24. Holmirzayev, U. B., & Ergashev, I. (2024). SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISH TIZIMI. *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*, 3(5), 109-115.
25. Хакимов, Б., Талабоев, Х., & Холмирзаев, У. (2021). ВОПРОСЫ УЛУЧШЕНИЯ АНАЛИЗА ОБРАЩЕНИЯ ДОЛГОВОЙ ЗАДОЛЖЕННОСТИ В УСЛОВИЯХ НАПРАВЛЕНИЯ. *Экономика и социум*, (6-2 (85)), 441-446.

26. Xolmirzayev, U. B., & Hakimova, G. Z. (2024). SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI AMALGA OSHIRISHNING MOLIVAVIY MEXANIZMI. *QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 10, 96-98.
27. Abdulazizovich, X. U. B., & Abdullajanovich, U. T. (2024). SANOAT ISHLAB CHIQRISH KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYAT YO'NALISHLARI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 41(5), 17-21.
28. Khakimov, J. B., & Kholmirzayev, A. U. (2021). Positive Aspects Of Cash Method In Small Enterprises In The Context Of Pandemic. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, 12(7).
29. Abdulazizovich, X. U. B., & Muhabbat, N. (2024). INCREASING COMPETITIVENESS IN THE COMMODITY MARKET IN INDUSTRIAL ENTERPRISES. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 42(1), 197-206.
30. Холмирзаев, У. А., & Самижонова, Ш. С. (2022). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОТРАЖЕНИЯ ДЕНЕГ В БУХГАЛТЕРСКОМ БАЛАНСЕ. *Экономика и социум*, (5-2 (92)), 755-766.
31. Холмирзаев, У. А., & Камолдинов, О. О. (2022). АСПЕКТЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРЕДСТАВЛЕНИЯ ИНФОРМАЦИИ О ДЕБИТОРСКОЙ ЗАДОЛЖЕННОСТИ ПО ОБОРОТНЫМ СРЕДСТВАМ В БУХГАЛТЕРСКОМ БАЛАНСЕ. *Экономика и социум*, (5-2 (92)), 767-779.
32. Убайдуллаев, Т., & Холмирзаев, У. (2019). ФАКТОРЫ И ТЕНДЕНЦИИ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА. *Мировая наука*, (1 (22)), 299-302.
33. Gulshirin, J., & Abdulazizovich, X. U. B. (2022, March). INCREASING THE EFFICIENCY OF INVESTMENT IN THE DEVELOPMENT OF EXPORT DIVERSIFICATION IN THE REGION. In *Conference Zone* (pp. 277-281).
34. Khakimov, B., & Kholmirzayev, U. (2020). Improving Cash Accounting And Analysis On The Basis Of International Experiences. *International Finance and Accounting*, 2020(1), 18.
35. Hakimov, B., Yunusov, M., & Holmirzayev, U. (2018). Elaboration of The Balance Sheet Liquidity Analysis-Requirements of The Period. *International Finance and Accounting*, 100.
36. Xolmirzaev, U. A., & Juraev, E. S. (2020). Problems of improvement of debtor debt debt analysis. *Мировая наука*, (1 (34)), 100-105.
37. Sirojiddinov, I., Xolmirzaev, U., & Axmadjonova, M. (2021). THE NEED AND FACTORS TO ACCELERATE THE DEVELOPMENT OF PRIVATE ENTREPRENEURSHIP. *Интернаука*, (21-5), 14-16.
38. Камолов, А. А., & Холмирзаев, У. А. (2016). Малый бизнес и частное предпринимательство в Узбекистане. *Вопросы экономики и управления*, (5), 182-184.
39. Abdulazizovich, X. U. B., Qutbiddinovich, S. I., & Sobirjon o'g'li, J. E. (2021). Positive aspects of the cash method in small businesses in a pandemic environment. *American Journal of Economics and Business Management*, 4(3), 1-8.
40. Abdurahmon, K., & Abdulazizovich, K. U. (2021, December). Some Issues of Improving Securities Accounting. In *Conference Zone* (pp. 129-132).
41. Abdulazizov, K. U., Sherzod, I., & Abdulkhodinevna, S. M. (2022). IMPROVING THE METHODOLOGICAL BASIS OF ACCOUNTING FOR FINANCIAL ASSETS. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036*, 11, 34-39.
42. Kamolov, A. A., & Xolmirzayev, U. A. (2018). Economic Laws And Categories. *Экономика и социум*, (2 (45)), 34-36.
43. Abdulazizovich, K. U. B., & Tursunpolatovna, N. N. (2023). Improving Reflection Of Information About Cash And Equivalents In The Accounting Balance Sheet On The Basis Of International Standards. *Journal of Survey in Fisheries Sciences*, 10(2S), 2107-2114.
44. Abdullaevich, A. O., & Abdulazizovich, K. U. B. (2023). The Importance of Infrastructure in Facilitating the Business Environment. *Journal of Survey in Fisheries Sciences*, 10(2S), 3695-3702.

45. Kholmiraev, U. B. A., & Ubaydullayev, T. A. (2023). Improving the classification of financial assets according to the economic content. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(1), 203-209.
46. Qutbiddinovich, S. I., & Abdulazizovich, X. U. B. (2023). GAAP ASOSIGA QO'YILGAN MOLIYAVIY HISOB KONTSEPTSIYALARI. *Interpretation and researches*, 1(3), 42-50.
47. Kamalov, A. A., & Xolmirzayev, U. A. (2016). Small business and private entrepreneurship in Uzbekistan. *Questions of Economics and Management*, 5(7), 6.
48. Xolmirzaev, U. B. A., & Madaliev, M. R. (2023). MOLIYIY HISOBOTLARNING QAYTA KO'RIB CHIQLISHIDA XALQARO TALABLARGA RIOYA ETILISHI ZARURLIGI. *Educational research in universal sciences*, 2(3), 424-432.
49. Xolmirzayev, U. A., & Xakimova, G. A. (2023). XO'JALIK YURITUVCHI SUB'EKTLARDA DEBITOR QARZLARINING AYLANISHI TAHLILIGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR: XO'JALIK YURITUVCHI SUB'EKTLARDA DEBITOR QARZLARINING AYLANISHI TAHLILIGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR.
50. O'g'li, J. E. S., & Abdulazizovich, X. U. B. (2019). Profits of housekeeping and its development. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 8(4), 419-423.
51. Juraev, E. S., & Xolmirzayev, U. A. (2020). Supporting small business subjects by tax reforms. *Экономика и социум*, (1 (68)), 48-52.
52. Xolmirzaev, U., Juraev, E., & Axmadjonova, M. (2021). The role of accounting in small business management. *Интернаука*, (21-5), 20-22.
53. Juraev, E., Xolmirzaev, U. A., & Rustamova, M. (2021). INCREASING THE EFFICIENCY OF REAL INVESTMENT IN THE CONDITIONS OF ECONOMIC LIBERATION. *Интернаука*, (21-5), 9-11.
54. Abdulazizovich, X. U. B., & Djabirxanovna, N. M. (2024). MOLIYAVIY AKTIVLAR HISOBINING TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI. *Modern education and development*, 12(3), 288-297.
55. Abdulazizovich, X. U. B., & Raxmjjonovna, M. N. (2024). QIMMATLI QOG'OZLARNI ANALITIK HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI. *Modern education and development*, 12(4), 18-28.